

“SHUM BOLA” QISSASIDA QO‘LLANILGAN MAISHIY LEKSIKA TADQIQI**Muhammadiyeva Madina Do‘smamat qizi**

ToshDO‘TAU doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15714901>

Annotatsiya. Ushbu maqolada G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi tili misolida o‘zbek tilining maishiy leksik qatlamiga oid birliklar leksik-semantik va tarixiy-etimologik jihatdan tahlil etilgan. Asarda ishlatilgan uy-ro‘zg‘or buyumlariga oid so‘zlar (igna, paqir, kosa, g‘alvir, o‘choq, o‘qlov va b.) o‘zining qadimgi turkiy ildizlari, fonetik o‘zgarishlari hamda ko‘chma ma‘nolari orqali xalqning madaniy-maishiy hayotini aks ettiradi. Tahlil natijalarida bu leksik birliklarning semantik taraqqiyoti, nutqiy holatdagi variantlari, arxaik shakllari va iboraviy qo‘llanishlari ochib berilgan. “Shum bola” asaridagi maishiy leksika o‘zbek xalqining tarixiy tafakkuri, ijtimoiy hayoti va kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: leksika, sema, polisemiya, maishiy leksika, leksik taraqqiyot ekvivalent leksima, dominantlik, arxaizm.

Abstract. This article analyzes the household lexical units found in G‘afur G‘ulom’s story “Shum bola” from both lexical-semantic and historical-etymological perspectives. The study focuses on words related to domestic items (such as needle, bucket, bowl, sieve, hearth, rolling pin, etc.) that reflect the daily life and material culture of Uzbek people. The analysis reveals the semantic development, phonetic changes, archaic forms, and idiomatic usage of these words. The household lexicon in “Shum bola” serves as a valuable linguistic source illustrating the social and cultural worldview of early 20th-century Uzbek society.

Keywords: lexis, seme, polysemy, dail lexis, development of lexis, equivalent lexeme, dominance, archaic words.

Аннотация. В статье рассматриваются лексические единицы бытового характера, встречающиеся в повести Гафура Гуляма «Шумбола», с лексико-семантической и историко-этимологической точек зрения. Исследование охватывает слова, обозначающие предметы домашнего обихода (например: игла, ведро, миска, решето, очаг, скалка и др.), отражающие повседневную жизнь и материальную культуру узбекского народа. В результате анализа выявлены семантические изменения, фонетические трансформации, архаичные формы и фразеологическое употребление данных лексем. Бытовая лексика в повести «Шумбола» представляет собой ценный лингвистический источник, отражающий социальное мышление и культурный уклад узбекского общества начала XX века.

Ключевые слова: лексика, сема, полисемия, бытовая лексика, лексическое развитие, эквивалентная лексема, доминирование, архаизм.

Til va jamiyat o‘rtasida chuqur va uzviy bog‘liqlik mavjud. Jamiyat taraqqiyoti, madaniyat, ijtimoiy hayot, texnika va boshqa sohalaridagi o‘zgarishlar tildagi leksik qatlamda bevosita aks etadi. Jumladan, maishiy leksika — xalqning kundalik hayotiga, uy-ro‘zg‘origa, yashash tarziga oid so‘zlar qatlamidir. Bu qatlam orqali o‘tmishdagi yashash sharoiti, xalq tafakkuri, turmush tarzi va tarixiy-madaniy ko‘nikmalarni o‘rganish mumkin. Ma‘lumki, inson rivojlangani sayin uning ehtiyojlari, yaxshi yashashga bo‘lgan intilishi natijasida uy-ro‘zg‘orga oid turli buyumlar yasagan va uning natijasida uni ifodalovchi maishiy leksemalar ham taraqqiy eta boshlagan.

Gʻafur Gʻulomning “Shum bola” qissasi ana shunday til materiallariga boy boʻlib, oʻz davrining leksik manzarasini aks ettiradi. Shundan kelib chiqqan holda “Shum bola” qissasida mavjud maishiy leksikasi leksik-semantik, tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tadqiq qilish mumkin. Maishiy leksika – bu uy-roʻzgʻor, kundalik hayot, yashash sharoitlariga oid soʻzlar majmuidir. Ular odatda soʻzlashuv nutqiga xos boʻlib, koʻpincha fonetik, semantik jihatdan rang-baranglik kasb etadi.

Asar tilida uy-roʻzgʻor buyumlarini ifodalovchi maishiy leksikani shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. **Uy jihozlarini bildiruvchi uy-roʻzgʻor buyumlari leksikasi:** pilikli chiroq, oʻchoq, samovar, igna, paqir, gʻalvir, ketmon, otashkurak, tunuka qaychi, fonus, narvon, hoʻqacha, oʻqlov, matrab, xurmacha, qoʻndoq, chirmandacha, xum, xurjun;

2. **Oshxonaga oid uy-roʻzgʻor buyumlari leksikasi:** kosa, piyola, oʻqlov, qoshiq, lagan, togʻara.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bir tomoni nayzasimon, ikkinchi tomoni teshik boʻlib, teshigidan ip oʻtkazib, narsa tikish ga moʻljallangan ingichka metall asbob. Igna leksemasi “Shum bola” asarida koʻrpa qavish uchun ishlatiladigan anjom sifatida qoʻllaganini quyidagi parchada koʻrish mumkin: *Bit, burgaga qarshi ishlatiladigan oʻldirilgan simob deysimi, qoʻtirga qarshi indov yogʻi, yomon yaraga qarshi xuni dori, mozi, zanjabil, sanoyi makka, kuchala, koʻzmunchoq, dumaloq upa, koʻrpa igna, soqol toposh, halilai zang degan quvvat dori, ishtonbogʻ, ishton pocha, buxor saqich, qopa saqich, har qanday yaraga dori boʻlgan balzamboy, qalampirmunchoq, tomir dori – qoʻying-chi, hamma narsa bor* (21).

Tikish uchun xizmat qiladigan boshi nayzali, oxiri koʻzli metall asbobini ifoda etuvchi igna leksemasidir. Buvim hali ham ignaning koʻzidan hech qiynalmay ip oʻtkazaveradilar. Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi yopishtirib zich tikilgan maʼnosini anglatgan *yigi* sifatidan (Devon, III, 32) - *nä* qoʻshimchasi bilan yasalgan: *yignä + nä*. Keyinroq oʻzbek tilida ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan: *yigʻindä > yignä* (Qadimgi turkiy tilda g undoshi n undoshiga almashgan yinnä shakli ham mavjud boʻlganligi qayd etilgan. (Devon, I, 381); soʻz boshidagi y talaffuz qilinmay qoʻygan: *yignä > ignä*. Soʻzlashuv nutqida *yignä* soʻzi tarkibidagi g undosh ini y undoshiga almashtirib *yiynä* shaklida, bu soʻz tarkibidagi y undoshini tashlab *ninä* shaklida ishlatish ham mavjud; *ignä* soʻzi tarkibidagi g undoshi y undoshiga almashtirilib *iyinä* shaklida ham ishlatiladi. (OʻTEL, I, 108).

“Bir orqa va yon tomonlari yopiq boʻlib, ichiga oʻt yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon oʻrnatiladigan qurilma” maʼnosini anglatuvchi “oʻchoq” leksemasi hozirgi oʻzbek adabiy tilida quyidagi koʻchma maʼnolarda qoʻllaniladi: Biror narsa paydo boʻladigan, amalga oshadigan, tarqaladigan joy; manba, markaz. Bilim oʻchogʻi. Maʼrifat oʻchogʻi. Tarbiya oʻchogʻi [OʻTIL, VI; 426].

Asarda “oʻchoq” soʻzi “oʻt yoqish uchun moʻljallangan roʻzgʻor buyumi” maʼnosida keladi: *Men jimgina quloq solib, oʻchoqning yoniga choʻqqayib, oʻt qalashtirmoqqa boshladim* (13).

Maishiy leksika tarkibiga kiruvchi “oʻchoq” leksemasi tahlili S.Ziyotovanning “Mehrobdan chayon” asarida qoʻllanilgan maishiy leksika tadqiqi” maqolasida quyidagicha berilgan: Oʻchoq “qozon oʻrnatib, oʻt yoqish uchun moslangan qurilma”. Bu soʻz asli oʻt (“olov”) soʻziga kichraytirish maʼnosini ifodalovchi - chuq qoʻshimchasini qoʻshib hozil qilingan (ДТС, 373: otchuq) shunga koʻra dastlab “kichik olov” maʼnosini anglatgan, “olov oʻqiladigan qurilma” maʼnosi keyin paydo boʻlgan.

Qadimgi turkiy tildayoq o: unlisining choʻziqlik belgisi yoʻq olgan, *ch* undoshi taʼsirida ot soʻzidan *t* undoshi *ch* undoshiga almashgan; keyinchalik ikkita *ch* undoshidan biri talaffuz qilinmay qoʻygan (ДТС, 362: ochuq), soʻngra *q* undoshi oldidagi *u* unlisi *a* unlisiga almashgan (Devon, I, 95); oʻzbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: o:T + chuq = o:otchuq > otchuq > ochchuq > ochuq > ochaq > ochâq. Dastlab “kichik olov” maʼnosini anglatgan, “olov yoqiladigan qurilma” [OʻTEL, I; 496-497] maʼnosi keyinchalik maʼno taraqqiyoti natijasida paydo boʻlgan. “Oʻchoq” soʻzi E.V.Sevortyan lugʻatida quyidagi maʼnolarni bildiradi: 1) qozom oʻrnatib, oʻt yoqish uchun moʻljallangan maxsus qurilma; 2) har qanday oʻt yoqiladigan joy; 3) oʻt, olov; 4) moʻri; 5) chuqur; 6) oʻrinjoy; 7) markaziy qismida oʻchoq boʻlgan bino; 8) oila [ЭСТЯ, I; 423-424].¹ Tilshunos SH.Usmonovaga koʻra, “oʻchoq” soʻzining proto-turk tildagi shakli hōtčuk (qad. turk. *Otčuq, xal. hōčaq*) boʻlib, u: hōt “oʻt”, “oʻt yoqmoq” + čuk “chuqur” dan tashkil topgan, yaʼni hōtčuk qadimda “oʻt yoqiladigan chuqur”ni anglatgan. “Oʻchoq” soʻzining semantik qamrovida “chuqur” maʼnosining dominantligi koʻzga tashlanadi. Davr oʻtishi bilan “oʻchoq” soʻzining “oʻt yoqish uchun moʻljallangan roʻzgʻor buyumi” semasi saqlanib qolgan.

Paqir soʻzi qadimgi turkiy tildagi “mis” maʼnosini anglatgan baqyr soʻzidan (Devon, I, 341”; DC, 82) olingan. Maʼno taraqqiyoti natijasida “mis” “mistdan yasalgan idish” (эстя, II, 46) maʼnosini yasagan. Hozirgi oʻzbek adabiy tiliga bu soʻz quyidagi tovush oʻzgarishlari bilan yetib kelgan: *b* undoshi *p* undoshiga, *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan, *ы* unlisining qattiqlik belgisi yoʻqolgan: *baqyr* > *paqyr* > *qäqyr* > *päqyr*.

Paqir leksemasi “baqır” (mis) soʻzidan fonetik oʻzgarishlar orqali “paqir” boʻlib shakllangan. Ushbu leksema ikki maʼnoga ega: chelak va ikki tiyinlik pul. Paqir suv va boshqa suyuqliklarni tashish va asrash uchun ishlatiladigan, bandlik silindirsimon idish, chelak (OʻTIL, VI-III, 640-641). “*Samovar, choynaklarni artib, kurakcha bilan kullarini olib chelakka soldim, yelkamda sochiq, qoʻlimda supurgi, hech nima koʻrma- ganday, xizmatda qoim turganimda namoz tamom boʻldi*” (97).

Paqir leksemasining yana bir maʼnosi “ikki tiyinlik chaqa”. Bir paqirga olmaslik Nazar-pisand qilmaslik, bahosini, qadr-qimmatini yerga urmoq. Bir paqirga qimmat (yoki arzimaydi), hech narsaga arzimaydi, juda yomon, past, arzimas maʼnolarda qoʻllaniladi. Asarda “paqir” leksemasi “*Bir tangani maydalab, bir paqirga (ikki tiyin) bir xurmacha qatiq olib, uyga keldim (16).*” “ikki tiyinlik chaqa” maʼnosida ifodalangan.

Kosa bu ot PPCda “[kăc] mn: [kă kat] va [kous]” shakllarida keltirilib, “chasha, kubok” deb (391), [kace] shaklida keltirilib, “*большая чашка, чаша*” deb (392) izohlangan; TжPCda kosa shaklida keltirilib, “*большая чашка, чаша*” deb izohlangan (194): oʻzbek tiliga shu shakli olingan. (OʻTEL, III, 123)

Kosa leksemasi suyuqlik uchun ishlatiladigan idish (OʻTIL VI-II, 910). Bu leksema oʻz va koʻchma maʼnolarda ishlatiladi:

- 1) Piyoladan kattaroq, asosan, suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish.
- 2) Oʻz oʻchogʻi ustida koʻndalangga kesib qoʻyilgan qovun, tarvuz yoki handalak boʻlagi.
- 3) Bosh kosa, kosaning miya joylashgan qismi, miya qopqogʻi.
- 4) Kosasi oqarmaydi. Hayoti, turmush yaxshilanmaydi, oʻnglanmaydi.

¹ S.Ziyotova “Mehrobdan chayon” asarida qoʻllanilgan maishiy leksika tadqiqi”. –T.: Til va adabiyot taʼlimi, 2021. 7-son. 31.

5) Kosa tagida nima kosa bor. Bir narsa, ish harakat zaminida yashirilgan boshqa bir narsa borligini bildiradi, shunga ishora qiladi.

6) Ko'z kosasi. Bosh suyagining yuz qismida ko'z joylashgan chuqurlik.

Ikki kosani qatig bilan to'ldirib, har ikki qushning oldiga qo'ydim (16). Asarda keltirilgan ushbu gapda "kosa" leksemasi o'z ma'nosida kelgan.

O'qlov, O'qlog'i "xamir yoyishga moslangan uzun silliq tayoqcha" (O'TIL, VI, 426). Bu sifat qadimgi turkiy tilde oq otining dastlabki "dumaloq to'g'ri silliq tayoq" ma'nosidan -la qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga -g'u qo'shimchasini qo'shib yasalgan; o'zbek tilida u unlisi i unlisiga, a unlisi â unlisiga almashgan: (oq+la=oqla-) + g'u=oqlag'u >oqlâg'i. bu so'z asli "dumaloq" ma'nosini anglatgan (ДТС, 369), ma'no taraqqiyoti natijasida otga aylangan.

Keyinchalik i unlisi talaffuz qilinmay qo'yib, g' undoshi q undoshiga, q undoshi esa o'z navbatida v undoshiga almashib, oqlâv. (O'TEL, I, 498)

"O'qlov" — bu so'z o'zbek tilida qadimdan mavjud bo'lgan **"o'q"** so'ziga **-lov** qo'shimchasi qo'shilishi orqali hosil bo'lgan

"O'q" — qadim turkiy tillarda *"to'g'ri, cho'zilgan tayoq"*, *"yoyda otish uchun mo'ljallangan tayoq shaklidagi narsa"* degan ma'nolarni anglatgan.

-lov — bu *asbob nomi yasovchi qo'shimcha* bo'lib, harakat yoki narsani bajarish uchun xizmat qiluvchi vosita, asbob ma'nosini ifodalaydi.

Demak, *o'q (to'g'ri tayoq) + -lov (vosita, asbob) = o'qlov* – "to'g'ri tayoqsimon asbob" degan ma'noni beradi.

O'qlov leksemasi *"ayolning quroli"* ma'nosi sifatida ham tasvirlanadi. Asarda keltirilgan parchada esa oshxona buyumi ma'nosida kelgan: *"Oyim qo'lidagi xamir yoyib o'tirgan o'qlov bilan boshimga astagina urdi, - dedi Shum bola"* (14).

Xulos o'rnida shuni aytish mumkinki, "Shum bola" qissasida uchraydigan maishiy leksik birliklar o'zbek tilining tarixiy qatlamlarini, xalqning urf-odati va turmush tarzini yoritadi. Bu so'zlar nafaqat uy-ro'zg'orga oid buyumlarni ifodalaydi, balki ular orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar ham namoyon bo'ladi.

Tahlil qilingan so'zlarning leksik-semantik tahlili va tarixiy-etimologik izohi shuni ko'rsatadiki, bu birliklar til taraqqiyotining real ko'zgusidir. "Shum bola" asari, ayniqsa, XX asr boshidagi o'zbek adabiy tili va leksikasining jonli namunasidir.

Mazkur asar tili orqali biz xalq tilining boyligini, qadimiy qatlamlar bilan uzviy bog'liqligini kuzatishimiz mumkin. Qadimgi turkiy ildizlar, fonetik va semantik o'zgarishlar, iboraviy ko'rinishlar — bularning barchasi bu so'zlarning leksik boylik sifatidagi o'rnini belgilaydi.

Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, maishiy leksika o'zbek tilining rivojlanishida muhim qatlam bo'lib, u tilshunoslik va etnolinguistik tadqiqotlar uchun muhim material hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Севортян Э.В. Этим логический словарь тюркских языков. — Москва, 1974. I-II tomlar. — B. 513.
2. Древнетюркский словарь. — Ленинград, 1969. — B. 513.
3. Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. — Москва, 1954. — B. 330.
4. O'zbek tilining etimologik lug'atni. Keyingi o'rinlarda — O'TEL I-III tom. — B. 498.
5. O'zbek tilining ilmo lug'atni. Keyingi o'rinlarda — O'TIL I-VI tomlari, 910 b.

6. G'afur G'ulom. Shum bola qissasi. – T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2021.
7. Ziyodova, S. (2020). “Mehrobdan chayon” asarida qo‘llangan maishiy leksika tadqiqi. O‘zMU Ilmiy to‘plami. – B. 31-33.